

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTE HUZURIDAGI  
PhD.03/30.09.2022.1.101.04 RAQAMLI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**IMODINOV XAMIDILLO SOYIBJONOVICH**

**TADBIRKORLIK SUB'EKTLARI FAOLIYATIDA RISK MENEJMENTI  
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.13 – Menejment**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2023**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии(PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Imodinov Xamidillo Soyibjonovich**

Tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatida risk menejmenti tizimini  
takomillashtirish..... 3

**Имодинов Хамидилло Сойибжонович**

Совершенствование системы риск-менеджмента в деятельности  
субъектов предпринимательства..... 26

**Imodinov Hamidillo Soyibzhonovich**

Improving the risk management system in the activities of business  
entities..... 50

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 54

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTE HUZURIDAGI  
PhD.03/30.09.2022.1.101.04 RAQAMLI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**IMODINOV XAMIDILLO SOYIBJONOVICH**

**TADBIRKORLIK SUB'YEKTLARI FAOLIYATIDA RISK MENEJMENTI  
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.13 – Menejment**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2023**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Iqt2305 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.bmti.uz](http://www.bmti.uz)) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Nosirov Ilxom Abbosovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dosent

**Rasmiy opponentlar:** **Ochilov Akrom Odilovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Turdibekov Hasan Ibrohimovich**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD. 03/30.09.2022.1.101.04 raqamli Ilmiy Kengashning 2023 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_:\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200100, Buxoro sh., Q. Murtazoyev ko'chasi 15, (8-365)223-78-84, faks: 223-78-84; e-mail: [bmti\\_info@edu.uz](mailto:bmti_info@edu.uz), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 202-xona).

Dissertatsiya bilan Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200100, Buxoro sh., Q.Murtazoyev ko'chasi 15, tel. (8-365) 223-78-84, faks: 223-78-84

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.  
(2023-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ - raqamli reestr bayonnomasi).

**A.B. Nizamov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, i.f.d., professor

**Sh.N. Xayitov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash kotibi, i.f.n., dotsent

**B.F. Azimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
i.f.n., dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotasiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda so‘nggi yillarda risk-menejment muammolari xalqaro yirik biznes vakillarining e‘tiborini tortdi, bunda rivojlangan mamlakatlardagi tadbirkorlar aksiyalar, valyutalar, tovarlarning bozordagi o‘zgarishi, shuningdek, milliy iqtisodiyotning ochiqlik darajasi va beqarorlashishi bilan bog‘liq ko‘plab risklarga duch kelmoqdalar. Asosan G‘arbiy Yevropa, AQSH, Kanada, Yaponiya mamlakatlarini o‘z ichiga olgan sanoati rivojlangan mamlakatlarning kompaniya va korporatsiyalarida risk-menejment tizimini joriy etish zarurati investorlarning investitsiyalar xavfsizligi va rentabelligini ta‘minlash talabiga aylandi, bu esa kompaniyalarda risklarni boshqarishga undaydi<sup>1</sup>. Allianz reyting tashkiloti tadqiqotlariga ko‘ra tadbirkorlik sub‘yektlarida ishlab chiqarishdagi uzilishlar bilan bog‘liq risklar faoliyatdagi eng katta ta‘sirchan risklar ekani aniqlandi<sup>2</sup>. Bu borada jahon amaliyotida to‘plangan tajribani qo‘llashga alohida e‘tibor qaratish va tadbirkorlik sub‘yektlarida risk-menejment tizimini takomillashtirishni talab etadi.

Xalqaro valyuta jamg‘armasining rivojlanayotgan mamlakatlar tadbirkorlik sub‘yektlarida risk-menejmentga oid tadqiqotlari xulosalariga ko‘ra, bu mexanizm yaxshi yo‘lga qo‘yilgan mamlakatlarda tadbirkorlik sub‘yektlarining rivojlanish darajasi ancha yuqoriligi asoslangan<sup>3</sup>. Shu boisdan, hozirgi jadal islohotlar davrida tadbirkorlik subektlarida risk-menejment tizimini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borish dolzarbdir.

O‘zbekistonda tadbirkorlik sub‘yektlarida risk-menejment tizimini rag‘batlantirish, uning yangi samarali vosita va usullaridan foydalanish asosida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalish sifatida “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish”<sup>4</sup> vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalar tadbirkorlik sub‘yektlarining xalqaro shartnomalari doirasida yuzaga keluvchi risklarning oldini olish, risklarni boshqarishda “korporativ boshqaruv”, “sifat menejmenti tizimi” va “risk menejment” tizimlarini integratsiyalash, kreditorlik riskini boshqarishda sug‘urta polislaridan maqsadli foydalanish, tashqi bozorlarda talab yuqori bo‘lgan va importning o‘rnini bosuvchi, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hamda tadbirkorlarning moliyaviy xavfsizlikni ta‘minlashdagi o‘rnini kuchaytirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo qiladi.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi PF-5718-son “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va himoya

<sup>1</sup> World investment report 2020. International production beyond the pandemic. 2020. United Nations. p. 2. [https://unctad.org/en/PublicationsLibrary/wir2020\\_overview\\_ru.pdf](https://unctad.org/en/PublicationsLibrary/wir2020_overview_ru.pdf)

<sup>2</sup> Allianz Risk Barometer. Top Business risks 2017, January 2017 URL.: [https://www.agks.allianz.com/assets/PDFs/Reports/Allianz\\_Risk\\_Barometer\\_2017\\_EN.PDF](https://www.agks.allianz.com/assets/PDFs/Reports/Allianz_Risk_Barometer_2017_EN.PDF).

<sup>3</sup> <https://www.imf.org/ru/News/Articles/2021/10/14/communique-of-the-forty-fourth-meeting-of-the-imfc>

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar PF-60-son “2022-2026-yillarga mulzhallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risid a”gi farmoni.

qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 6-iyuldagi PF-6019-son "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari hamda boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tadbirkorlik sub'yektlarida risk-menejment tizimini takomillashtirish masalalari xorijiy iqtisodchi olim va amaliyotchilar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, tadbirkorlik sub'yektlarida risk-menejment va iqtisodiy o'sishni boshqarish bilan bog'liq ilmiy ishlar qator xorijlik olimlar I.Ansoff, Dj.Stigler, V.M.Galperina, S.Kollinz, A.Marshall, K.Nikolas, T.Shuls<sup>5</sup> va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

MDH mamlakatlari olimlari: V.Abshuk, YU.Rebrin, I.Pavlyushenko, A.Bolayev, A.Novikov, B.Rubsov<sup>6</sup>ning ilmiy asarlarida tadbirkorlik sub'yektlarida risk-menejment va uni baholash, uning boshqarish samaradorligini oshirish, xorijiy investitsiya faoliyati bilan bog'liq munosabatlarning iqtisodiy va huquqiy asoslari o'rganilgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan akademiklar M.Sharifxo'jayev, I.Iskandarov, S.G'ulomov, iqtisodiyot fanlari doktorlari, professorlar M.Tursunxojayev, M.Ikramov, Sh.Zaynutdinov, R.Nurimbetov, N.Yo'ldoshev, Sh.Shodmonov, A.Vaxabov, Sh.Tashmatov, N.Xaydarov<sup>7</sup>ning ilmiy izlanishlarida

---

<sup>5</sup> Ансофф И. Стратегический менеджмент. Классическое издание Strategic Management. – Питер, 2009. – с. 132-169.; Стиглер Дж. Теория олигополии // Веки экономической мысли. Том 2. Теория фирмы / Под ред. В.М. Гальперина – СПб.: Экономическая школа, 2000. - с. 371-401.; Коллинз С. The Practice of Management (1954). Русскоязычное издание: Практика менеджмента. – М.: Манн, Иванов и Фербер, 2015. – с. 416.; Маршалл А. Принципы экономической науки. Пер. с англ. – М.: Издательская группа "Прогресс", 1993. – с. 23.; Николас К. A Model of Economic Growth // The Economic Journal, Vol. 67, No. 268 (Dec., 1957). - pp. 591-624.; Schultz T.W. Origins of Increasing Returns, Cambridge, Massachusetts, Blackwell Publishers, 1993.

<sup>6</sup> Абчук В.А. Менеджмент: учебник. – СПб.: Издательство «Союз», 2002. – с. 463.; Ребрин Ю.И. Основы экономики и управления производством: Конспект лекций. – Таганрог: Изд-во ТРТУ, 2000. – с. 145.; Павлюченко В.Ф. Управление эффективностью экономических процессов / В.И.Павлюченко. – М.: Мысль, 1986. – с. 352.; Болаев А.В. Привлечение прямых иностранных инвестиций как фактор внедрения зарубежных технологий в стране-реципиенте в условиях экономической глобализации // Управление экономическими системами. – 2014. – Апрель (№ 64).; Новиков А.В. Фондовый рынок как механизм привлечения инвестиций. – Н.: 2000. – с. 346.; Рубцов Б.Б. Мировые финансовые рынки: современное состояние и закономерности развития. – М.: Финансовая академия, 2007. – с. 30.

<sup>7</sup> Шарифхўжаев М. Менежмент. Дарслик. – Т.: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2002.- 454 б.; Турсунходжаев М. Производственный менежмент. – Т.: Иктисодий-молия, 2006. - 224 с. Зайнутдинов Ш. Шермухамедов А. Менежмент назарияси. Дарслик. – Т.: Иктисодчи, 2014. - 270 б. (29-боб. Менежмент самарадорлиги. 241-248 б.); Икромов М.А. Ходжаева М.Я. Менежмент: словарь-справочник. – Т.: ТАДИ, 2007. - 387 с. Хошимова Н.А. Инвестиционный потенциал. – Т., 2014.320 с.(глава IV.Анализ эффективности функционирования механизма формирования инвестиционного потенциала). Гуламов С.С. Менежмент ва бизнес асослари. – Т.: "Мехнаг"нашриёти, 1997. - 351 б.(II-IV, VII боблар) Нуриббетов Р.И Менежмент: амалий машқлар. – Т.: Verpoligraf, 2007. – 188 с. Йўлдошев Н. Менежмент. Дарслик. – Т.: ТДИУ, 2019. – 453б.; Йўлдошев Н.К., Набоков В.И. Менежмент назарияси. Дарслик. – Т.: ТДИУ, 2013. -433б.; Шодмонов Ш ва бошқалар.

tadbirkorlik shakllari rivojlanishining umumiy qonuniyatlari, shu jumladan menejment tizimining samarali vositalarida tadbirkorlik taraqqiyotining nazariy-amaliy muammolari atroflicha o'rganilgan. Ammo ilmiy yondashuvlar va nazariy izlanishlarning turlicha bo'lishiga qaramay, tadbirkorlik sub'yektlarida risk-menejment tizimini takomillashtirish masalalariga doir kompleks izlanishlar mavjud emas.

Aytish lozimki, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatida risk-menejmentni qo'llashni kengaytirish sohasida hal qilinmagan muammolar haliyam yetarlicha uchraydi. Bizningcha, hozirgacha risk-menejment jarayonining keng qamrovli, yaxlit ravishda ilmiy jihatdan chuqur o'rganilmaganligi ushbu muammolarning saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda. Shu munosabat bilan bu muammoni tadqiq etish tadbirkorlik sub'yektlarida risk-menejment tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya ishi Andijon davlat universitetining IH-2018-sonli "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida tadbirkorlik taraqqiyoti asoslari va kafolatlarini ta'minlashning ilmiy asoslari" mavzusidagi fundamental tadqiqotlar grant loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatida risk-menejmentni takomillashtirish bo'yicha nazariy-uslubiy, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tadbirkorlik faoliyatida risk menejment tizimining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini yoritish;

tadbirkorlik faoliyati risklarining turlari va uni boshqarish usullarini tadqiq etish;

risk-menejment tizimining tarkibi va joriy qilish uslubini ilmiy-nazariy asoslash;

Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish holatini tahlil qilish va uning faoliyatida yuzaga keluvchi risklarni aniqlash;

tadbirkorlarning investitsion faoliyatida risklarni boshqarish jarayonlaridagi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini baholash;

tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ta'sir darajasini ekonometrik baholagan holda 2023-2026-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish;

tadbirkorlik sub'yektlarida risk-menejment tizimini takomillashtirishda mavjud muammolarni aniqlash va risk-menejment strategiyasini ishlab chiqish;

tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatidagi risklarni sug'urtalashni samarali tashkil etish yo'llarini taklif qilish;

tadbirkorlik sub'yektlarida risk menejment tizimini joriy etish asosida faoliyat samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha ilmiy-nazariy takliflar ishlab chiqish.

---

Иқтисодиётда тежамкорлик ва мутаносибликни таъминлашнинг назарий-услубий асослари. Монография. – Т.: ТДИУ, 2010. – 256 б.; Tadbirkorlik risklarini boshqarish asoslari: o'quv qo'llanma/ A.V.Vaxabov, Sh.A.Tashmatov, N.X.Xaydarov, A.V.Vaxabov. – Toshkent: Baktريا Press, 2013. – 198 b.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'yektlari faoliyati olingan.

**Tadqiqotning predmetini** tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatida risk menejment tizimi jarayonida vujudga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tahlil, sintez, kuzatish, guruhlash, tizimli fikrlash, abstrakt-mantiqiy, iqtisodiy-matematik, prognozlash hamda integratsion yondashuv, so'rovnomalar usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiliklari** quyidagilardan iborat:

kreditorlik riskini boshqarishda tadbirkorlik sub'yektlarining bankdan olingan kreditlar bo'yicha sug'urta polislari jami ta'minotining 30 foizdan oshirmaslikning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

tadbirkorlik sub'yektlarining tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan va importning o'rnini bosuvchi, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha yuzaga keladigan moliyaviy risklarni boshqarishda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan "Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi"ni tashkil etish taklif etilgan;

tadbirkorlik sub'yektlarining xalqaro shartnomalari doirasida yuzaga keladigan risklarni oldini olishda Savdo-sanoat palatasi tarkibida "Xalqaro risklarni baholash va boshqarish" bo'limini tashkil etish taklif etilgan;

risklarni boshqarish tizimida integratsiyalashtirish va avtomatlashtirish jarayonlarining qarzдорlik va yo'qotishlarga ta'sirining 2023-2026-yilga bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

tadbirkorlik faoliyatida risk menejment tizimining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va xususiyatlarini e'tiborga olgan holda "risk-menementi" tushunchasining mualliflik ta'rifi taklif etildi;

tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatida yuzaga keluvchi risklarning turlari va ularni samarali boshqarish tizimining tarkibi, usullari hamda ularni joriy etish uslubi ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan;

tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatidagi investitsion risklarni boshqarish jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlanib, ularning ta'sir darajasi ekonometrik baholangan hamda 2023-2026-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

tadbirkorlik sub'yektlari raqobatchilik muhitidagi risk menejment strategiyasi ishlab chiqilib, Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'yektlariga joriy etilgan;

tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatida risk menejmentini samarali joriy etish asosida faoliyat samaradorligini oshirish yo'llari taklif etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan yondashuv va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlarning rasmiy manbalardan olingani, mamlakatda faoliyat yuritayotgan xo'jalik sub'yektlari ma'lumotlariga asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi, Andijon viloyati

statistika boshqarmasi ma'lumotlari, shuningdek, boshqa amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natijalarning nazariy jihatdan asoslanganligi, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan tadbirkorlik sub'yektlari taraqqiyoti jarayonida risk menejmentni takomillashtirish masalalariga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan tadbirkorlik sub'yektlarida risk menejmentni takomillashtirish, tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatida boshqarish samaradorligini oshirish, tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatida iqtisodiy o'sishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish, shuningdek, "Menejment", "Tadbirkorlik asoslari", "Risk-menejment", "Risklarni boshqarish", "Risk tahlili" fanlari bo'yicha keystadilar, ma'ruzalar matni, o'quv qo'llanmalarni tayyorlashda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatida risk-menejmentni takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kreditorlik riskini boshqarishda tadbirkorlik sub'yektlarining bankdan olingan kreditlari bo'yicha ta'minotida sug'urta polislari jami ta'minotning 30 foizdan oshirmaslik taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi ijroiya qo'mitasining 2021-yil 5-fevraldagi 4/325-son qarori bilan tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2021-yil 16-noyabrdagi 11/05-15-1440-son ma'lumotnomasi). Natijada tadbirkorlarning 67,1 mlrd. so'mlik kreditlaridan 18,1 mlrd. so'mlik qiymatlari sug'urta polislari bilan ta'minlangan;

tadbirkorlik sub'yektlarining tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan va importning o'rnini bosuvchi, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha yuzaga keladigan moliyaviy risklarni boshqarishda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan "Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi"ni tashkil etish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi PQ-5088-son "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2021-yil 16-noyabrdagi 11/05-15-1440-son ma'lumotnomasi). Natijada jamg'arma tomonidan tadbirkorlik sub'yektlarining 86,4 mln. dollarlik mahsulotlari eksport qilingan;

tadbirkorlik sub'yektlarining xalqaro shartnomalari doirasida yuzaga keladigan risklarni oldini olishda Savdo-sanoat palatasi tarkibida "Xalqaro risklarni baholash va boshqarish" bo'limini tashkil etish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-sentyabrdagi PF-6314-son "Tadbirkorlik sub'yektlari uchun ma'muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2021-yil 16-noyabrdagi 11/05-15-1440-son ma'lumotnomasi). Natijada 27 ta tadbirkorlik sub'yektining xalqaro shartnomalar doirasida 12,7 mlrd. so'mlik mablag'lari yo'qotishlari oldi olingan;

risklarni boshqarish tizimida integrasiyalashtirish va avtomatlashtirish jarayonlarining qarzidorlik va yo‘qotishlarga ta‘sirining 2026-yilga bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi ijroiya qo‘mitasining 2021-yil 5-fevraldagi 4/325-son qarori bilan joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2021-yil 16-noyabrdagi 11/05-15-1440-son ma‘lumotnomasi). Uchbu taklif natijasida tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan 2026-yilgacha 634,2 mlrd. so‘mlik mahsulotlari bo‘yicha yuzaga keladigan risklardan qarzidorlik hosil bo‘lmaslik prognoz qilingan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya ishi mavzusi bo‘yicha uning asosiy g‘oyalari va mazmunini aks ettiruvchi jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, OAK e‘tirof etgan jurnallarda 5 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiyalar to‘plamlarida 6 ta ma‘ruza tezisi nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiyaning tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 138 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, ob‘yekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ularning sinovdan o‘tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatida risk-menejment tizimini tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatida risk menejment tizimining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari, tadbirkorlik sub’yektlari faoliyati risklarining turlari va boshqarish usullari, tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatida risk-menejment tizimining tarkibi va joriy qilish uslubi tadqiq qilingan.

Iqtisodiy adabiyotda tadbirkorlik sub’yektlarida risk-menejment tizimini ta‘riflashda yagona yondashuv yo‘qligini ko‘rish mumkin. Xorijiy adabiyotlarda ushbu kategoriya negizida aksariyat holatlarda tadbirkorlik sub’yektlarida operativ va strategik risk-menejmentning muhim baholovchi ko‘rsatkichi tuchuniladi. Jumladan, Richard Stoun, Stendli Brayn (Richard Stone & Stendley Brown, 2016) tadqiqotlarida qayd etilishisha, tadbirkorlik sub’yektlarida risk-menejment tizimi mamlakatda amal qiluvshi qonunchilik asosida tadbirkorlik faoliyati vakilining samarali rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan barcha himoya va kafolatlar majmuidir<sup>8</sup>.

---

<sup>8</sup> Richard Stone. Stendley brown Effective risk management models for business entities // Public finance. Paris, 2017. – p. 22-28.

Ju Xuan Ji (Ju Huang Ji, 2016) tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatida risk-menejment tizimini hozirgi zamon sharoitida davlat va tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning muhim yo'nalishi sifatida o'rganib, bunda tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatining moliyaviy, iqtisodiy, innovatsion-investitsion salohiyati oshib borishi va davlatning tadbirkorlik faoliyati ravnaqidan kutayotgan samarasi balansi e'tiborda bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi<sup>9</sup>.

Ba'zi mualliflar tomonidan esa "tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatida risk-menejment tizimi mamlakatda risk menejmentining iqtisodiy funksiyasidan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichi"<sup>10</sup> sifatida izohlanadi.

Ayrim iqtisodchilar "tadbirkorlik sub'yektlarida risk-menejment tizimi samaradorligi ko'rsatkichi tadbirkorlik sub'yektlarining YaIMdagi ulushi dinamikasini hisobga olgan holda shu moliya yilida faoliyatini zarar bilan yuritgan, faoliyatini to'xtatgan va hatto bankrot bo'lgan sub'yektlar sonining haqiqatda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'yektlari soniga bo'lish orqali hisoblanishi"<sup>11</sup>ni ta'kidlaydilar.

Dissertatsiya ishida yuqoridagi fikrlar muallif tomonidan umumlashtirib, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlashtirish qoidalari asosida tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatida risk menejmenti tizimining muallif talqini berildi: "Tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatida risk menejmenti tizimi – yaxlit tashkiliy-iqtisodiy asoslarda tadbirkorlik sub'yektlarining bozor qonuniyatlari asosida bozor sub'yektlari bilan o'zaro hamkorlikda rivojlanishga erishish orqali yuzaga keluvchi risklarni samarali boshqarish vositalari, usullari va tadbirlari majmuyidir".

Tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatida risk menejmentini iqtisodiy tizimlashtirish qoidalari asosida o'rganish bu jarayonni bir vaqtning o'zida uch darajadagi munosabatlar ishtirokchilarining maqsadli faoliyati yig'indisi sifatida o'rganishni talab etadi va mazkur tizim quyidagi elementlar: tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatida risk-menejment tizimining mohiyati, maqsadi, omillari, tamoyillari, turlari va tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatida risk menejmenti tizimi samarali faoliyatidan kutiladigan natijani qamrab oladi (1-rasm).


Tadbirkorlik riski shakllanishiga ko'plab jarayonlar, shu jumladan turli xo'jalik sub'yektlari xulq-atvorini belgilovchi omillar bevosita ta'sir ko'rsatadi: umumiy xususiyatdagi omillar (tabiiy-geografik, iqtisodiy, siyosiy, texnogen, ijtimoiy, ilmiy-texnik, huquqiy); umumiy iqtisodiy xususiyatdagi omillar (makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish, iqtisodiy xavfsizlik, siklga qarshi tartibga solish, tadbirkorlik faoliyatini me'yoriy-huquqiy tartibga solish). Bu omillardan quyidagi ikki guruh omillar shakllanadi – tadbirkorlik xususiyatidagi omillar (ishlab chiqarish, savdo, logistik, axborot, marketingga oid, raqobatga oid)

<sup>9</sup> Ju Huang Ji. Risk management system for business entities: from forecast to reality JDI Executive Programs. - 2016. – p. 34.

<sup>10</sup> Воробьев С.Н. Урегулирование системы рисков предпринимательских структур: комплексное решение. // Российское предпринимательство, 2017. №22 (220). – с. 190-194.; Забирова Л.М. Комплексный подход к процессу защиты рисков предпринимательских структур // Казанская наука, 2018. - с. 114-119.

<sup>11</sup> Margianti E.S., Ikramov M.A., Abdullaev A.M. Entrepreneurship in Uzbekistan: trends, competitiveness, efficiency // Indonesia, Jakarta, Gunadarma Publisher, 2016.; Abdullaev A.M., and ets., 2018. Actual issues of the functioning of an innovative industrial enterprise. ISJ Theoretical & Applied Science, 11 (67), 74-81. doi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-11-67-14> doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2018.11.67.14>.

hamda xulq-atvorli omillar (manfaatlar, sabablar, rag‘batlar, inson kapitali bilan bog‘liq omillar, xodimlarni boshqarish bilan bog‘liq omillar). Mazkur omillar pirovardida moliyaviy natijani shakllantiruvchi omillarni (investitsion; kredit; bank; milliy valyuta barqarorligi bilan bog‘liq) ifodalaydi.



**1-rasm. Tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatida risk menejmentni tizimli tashkil etish mazmuni<sup>12</sup>**

Mazkur omillar o‘zaro ta‘sirining o‘ziga xos belgilarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Bir tomondan – bu, turli risklarning yuzaga kelish jarayonini tahlil

<sup>12</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

qilishga tizimli yondashuvni talab etsa, boshqa tomondan esa – har qaysi aniq holatda risk tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatiga nisbatan ham ichki yoki tashqi, yuqori yoki past darajada boshqariluvchi ob'yekt sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Bu bilan risk menejmentini boshqarish yuzasidan vazifalarning tabaqalashuvi va birmuncha sezilarli natijaga erishish ta'minlanadi.

Tadbirkorlik faoliyati amaliyotida risklarning ko'plab turlari uchraydi. Umumqabul qilingan yondashuv doirasida risk turlarini tasniflashda uning quyidagi ikki turi ajratib ko'rsatiladi: ichki turlarga: pul oqimlari, ishlab chiqarish, tijoriy, strategik, boshqaruv, kadrlarga xos, imijga xos, reputatsiyaga oid, mahsulot (xizmat) sifati; tashqi turlarga: huquqiy, loyihali, investitsiyali, logistik, raqobat muhiti, valyuta kursi, xomashyo, ekologik va hokazolar kiradi.

Tadbirkorlik muammolariga bag'ishlangan turli adabiyotlarda tadbirkorlik faoliyatidagi risklarning tizimli tasnifi yaratilmagan. Bu risklarni tasniflash uchun, muallifning fikricha, birinchi navbatda risklarni muayyan guruhlarga ajratish imkonini beruvchi asosiy belgilarini aniqlab olish zarur.

Binobarin, risklarni yuzaga kelishiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin: vujudga kelish sohasiga ko'ra; vaqtga nisbatan davomiyligiga ko'ra; risklilik darajasiga ko'ra va oqibatlarining xususiyatlariga ko'ra. Risklarni ta'sir darajasiga ko'ra tarkibiy, chiziqli va tizimli turlarga bo'lish mumkin. Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keluvchi tarkibiy risklar moliyaviy, strategik, operatsion va tahdidli ichki va tashqi risklarga bo'linadi. Dissertatsiya ishida tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatidagi ushbu risklarning keng miqyosli tasnifi va risklar shakllanishiga ko'plab jarayonlar ta'sir ko'rsatishi ham keltirib o'tildi.

Dissertatsion tadqiqotlar natijasida tadbirkorlik faoliyatidagi risklarni tartibga solish yo'llari aniqlandi: risklarning oldini olish; riskli holatni chegaralash; o'z-o'zini sug'urtalash; zahira yaratish; diversifikatsiya (riskni bir faoliyatdan kelgan zararni boshqa faoliyatdan kelgan daromad hisobiga qoplash imkoniyatiga ega bo'lish); limitlash; xejirlash; sug'urtalash (asosan yuqori darajadagi risklarni). Tadbirkorlik faoliyatidagi risk menejmenti tizimini tashkil etish va joriy qilish uslubi hamda samarali boshqarish tizimi ishlab chiqildi.

Tadbirkorlik faoliyatida vujudga keluvchi risk turlarini aniqlash, ularning ta'sir darajasini baholash va samarali boshqarish usullari hamda vositalarini takomillashtirish risklar natijasida ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarning oldini olish va pirovardida tadbirkorlarning moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligini oshirishga xizmat qilishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi.

Dissertatsiyaning **“Tadbirkorlik sub'yektlarida risk menejmentiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish holati tahlili, tadbirkorlik sub'yektlarining investitsion faoliyatidagi risklarni boshqarish jarayonlariga omillar ta'siri tahlili, tadbirkorlik sub'yektlarida risk-menejment faoliyatini ekonometrik baholash amalga oshirilgan.

Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga oid so'nggi yillardagi tendensiyalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadvalda 2018-2022-yillarda Andijon viloyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi umumiy hajmga nisbatan foizlarda keltirib o'tilgan.

Xususan, 1-jadval tahlili davomida Andijon viloyatining YaIMdagi, sanoatdagi, qurilishdagi, bandlik, eksport, importdagi ulushlarini ko‘rib chiqish mumkin. YaIM ulushi 2018-yilda 83,1 %ni, 2019-yilda 79,6 %ni, 2020-yilda 73,1 %ni, 2021-yilda 81,1 %ni, 2022-yilda esa 82,4 %ni tashkil etdi. 2022-yilda 2018-yilga nisbatan 0,9 %ga kamaygan. Andijon viloyatining jami sanoatdagi ulushi esa 2018-yilda 50,4 %ni, 2019-yilda 34,5 %ni, 2020-yilda 21,2 %ni, 2021-yilda 32,2 %ni, 2022-yilga kelib esa 35,1 %ni tashkil etgan (2018-yilga nisbatan 30,4 %ga kamaygan).

### 1-jadval

#### Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi va rivojlanish dinamikasi (umumiy hajmga nisbatan %da)<sup>13</sup>

Ko‘rsatkichlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2022-yil 2018-yilga nisbatan o‘zgarishi, (%,-; +)
YAIM	83,1	79,6	73,1	81,1	82,4	-0,9
Sanoat	50,4	34,5	21,2	32,2	35,1	-30,4
Qurilish	93,2	93,8	93,3	94,9	96,9	4
Bandlik	84,4	81,7	81,8	84,2	85,3	1,07
Eksport	75,3	58,9	44,5	36,5	32,4	-57
Import	16,7	15,2	12,9	13,1	17,8	-6,6

Shuningdek 2018-yilda Andijon viloyatining qurilishdagi ulushi umumiy hajmining 93,2 %ini, 2019-yilda 93,8 %ini, 2020-yilda 93,3 %ini, 2021-yilda 94,9 %ini, 2022-yilda esa 96,9 %ini tashkil etdi (2018-2022-yillar oralig‘ida 4 %ga ortgan). Bandlik ulushi 2018-yilda 84,4 %ni, 2019-yilda 81,7 %ni, 2020-yilda 81,8 %ni, 2021-yilda 84,2 %ni, 2022-yilda 85,3 %ni tashkil etdi (2018-yilga nisbatan 1,07 %ga ortgan). Andijon viloyatining eksport ulushida ushbu ko‘rsatkich 2018-yilda 75,3 %ni, 2019-yilda 58,9 %ni (o‘tgan yilga nisbatan 21,8 %ga kamaygan), 2020-yilda 44,5 %ni, 2021-yilda 36,5 %ni, 2022-yilda esa 32,4 %ni tashkil etdi (2018-yilga nisbatan 57 %ga kamaygan). Andijon viloyatining import ulushi 2018-yilda 16,7 %ni, 2019-yilda 15,2 %ni, 2020-yilda 12,9 %ni, 2021-yilda 13,1 %ni, 2022-yilda 17,8 %ni tashkil etdi (2018-yilga nisbatan 6,6 %ga kamaygan).

So‘nggi yillarda kichik biznes sub‘yektlarining mamlakatimizda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, aholi daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatidagi natijalari salmoqli bo‘lib bormoqda. Quyidagi 2-jadvalda 2018-2022-yillar oralig‘ida Andijon viloyati bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘yektlari bo‘yicha faoliyat yuritayotgan va tugatilayotgan sub‘yektlar sonini tahlil qilish mumkin.

Andijon viloyatida ro‘yxatga olingan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘yektlari sonining so‘ngi 5 yilligi tahlil qilinsa, 2018-yilda 21631 ta, 2019-yilda 23978 ta (o‘tgan yilga nisbatan, 10,9 %ga ortgan), 2020-yilda 28880 ta, 2021-yilda

<sup>13</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2018-2022-yillardagi byulleten ma‘lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

35795 ta, 2022-yilda esa 38057 tani tashkil etdi (o'tgan yilga nisbatan 6,3 %ga ortgan). Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 2018-yilda 20342 tani, 2019-yilda 22560 tani, 2020-yilda 31683 tani, 2021-yilda 31683 tani, 2022-yilga kelib esa 34999 tani tashkil etdi.

Andijon viloyatidagi faoliyat yuritmayotgan korxonalar soni 2018-yilda 1283 tani (jami ro'yxatga olingan korxonalar sonining 5,9 %ini tashkil etdi), 2019-yilda 1418 tani (o'tgan yilga nisbatan 10 %ga ortgan), 2020-yilda 3073 tani, 2021-yilda 4112 tani, 2022-yilda 3058 tani tashkil etdi (so'ngi 5 yil davomida 138,3 %ga ortdi). 2018-yilda yangi tashkil etilgan korxonalar soni 2476 tani, 2019-yilda 3131 tani, 2020-yilda 6632 tani, 2021-yilda 7684 tani, 2022-yilda 7111 tani tashkil etdi (o'tgan yilga nisbatan 8,5 %ga kamaygan). 2018-yilda Andijon viloyatida jami tugatilgan korxonalar soni 4014 tani tashkil etdi, 2019-yilda 864 tani (o'tgan yilga nisbatan 79 %ga kamaygan), 2020-yilda 1952 tani, 2021-yilda 791 tani, 2022-yilda 4836 tani tashkil etdi (o'tgan yilga nisbatan 6 baravarga ortgan).

## 2-jadval

### Andijon viloyati bo'yicha faoliyat yuritayotgan va tugatilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari soni<sup>14</sup>

Ko'rsatkichlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Ro'yxatga olingan	21631	23978	28880	35795	38057
shu jumladan:					
Faoliyat yuritayotgan	20342	22560	25807	31683	34999
Faoliyat yuritmayotgan	1289	1418	3073	4112	3058
Yangi tashkil etilgan	2476	3131	6632	7684	7111
Tugatilgan	4014	864	1952	791	4836

Andijon viloyatida faoliyat yurituvchi korxonalarining debitorlik hamda kreditorlik qarzdorligi to'g'risida ma'lumotlari tahlil qilindi. Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan korxonalaridagi 2018-yildagi jami debitorlik qarzlari 2838043,7 mln.so'mni, shundan muddati o'tgani 2957,3 mln. so'mni tashkil etdi. 2019-yilda 2754516,9 mln.so'mni (o'tgan yilga nisbatan 0,3 %ga kamaygan), muddati o'tgani esa 18163,3 mln. so'mni, 2020-yilda 4770189,3 mln.so'mni (o'tgan yilga nisbatan 73,1 %ga ortgan), muddati o'tgani 21120,0 mln. so'mni, 2021-yilda 7491299,5 mln. so'mni, shundan muddati o'tgani 86868,1 mln.so'mni, 2022-yilda 11288949,0 mln. so'mni (so'ngi 5 yilda 3 baravarga ortgan), shundan muddati o'tgani 74050,9 mln. so'mni tashkil etdi.

Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan korxonalaridagi 2018-yildagi jami kreditorlik qarzlari 5575353,3 mln.so'mni, shundan muddati o'tgani 5363,4 mln. so'mni tashkil etdi. 2019-yilda 8249101,0 mln.so'mni (o'gan yilga nisbatan 47,9 %ga ortgan), muddati o'tgani esa 17361,9 mln. so'mni, 2020-yilda 10451858,0 mln.so'mni (o'tgan yilga nisbatan 26,7 %ga ortgan), muddati o'tgani 17638,0 mln. so'mni, 2021-yilda 8605121,2 mln. so'mni, shundan muddati o'tgani 55557,4

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2018-2022-yillardagi byulleten ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

**Andijon viloyatida faoliyat yurituvchi korxonalarining debitorlik hamda kreditorlik qarzdorligi to‘g‘risida ma’lumot (mln.so‘m)<sup>15</sup>**

<b>Ko‘rsatkichlar</b>	<b>2018-y.</b>	<b>2019-y.</b>	<b>2020-y.</b>	<b>2021-y.</b>	<b>2022-y.</b>
<b>Jami debitorlik qarzdorlik</b>	2838043,7	2754516,9	4770189,3	7491299,5	11288949,0
shundan: muddati o‘tgan	2957,3	18163,3	21120,0	86868,1	74050,9
<b>Jami kreditorlik qarzdorlik</b>	5575353,3	8249101,0	10451858,0	8605121,2	17377532,3
shundan: muddati o‘tgan	5363,4	17361,9	17638,0	55557,4	43001,7

mln.so‘mni, 2022-yilda 17377532,3 mln. so‘mni (so‘ngi 5 yilda 2 baravarga ortgan), shundan muddati o‘tgan 43001,7 mln. so‘mni tashkil etdi.

Mamlakat iqtisodiyotining taraqqiyot darajasi qancha yuqori bo‘lishi bevosita tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatining investitsion va innovatsion faolligiga bog‘liq. Bu esa, tadbirkorlik faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklar ta‘sirini kamaytirish (moliyalashtirish) va samarali boshqarish imkoniyatini oshiradi. Mazkur tendensiyalarning rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston Respublikasi uchun ham amal qilishini istagan holda buning uchun hozirlanishi lozim bo‘lgan sharoitlar, uchrashi mumkin bo‘lgan risk va tahdidlar, ularni boshqarishga oid samarali vosita va tadbirlarning xususiyatlarini o‘rganish talab etiladi.

Bu jihatdan, rivojlanishni – tadbirkorlik sub’yektlari faoliyati hayot tarzining bosh mezoni sifatida tushunish lozim va uning ta‘minlanishi innovatsion va investitsion loyihalarni amalga oshirishda tadbirkorlik risklarini samarali boshqarishga bevosita bog‘liq. Dissertatsiya ishida investitsion faoliyatdagi risklar aniqlandi, risklarni baholash va boshqarishning tashkiliy jarayonlari, investitsion risk menejmentining asosiy bosqichlari tahlil qilindi.

Andijon shahridagi “Novator” MCHJ korxonasi tomonidan amalga oshirilgan investitsion loyiha misolida loyiha bo‘yicha risklarning rejalashtirilayotgan foydaga ta‘siri tahlil qilindi (4-jadval).

<sup>15</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2018-2022-yillardagi byulleten ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

**4-jadval**

**“Novator” MCHJ investitsiya loyihasida rejalashtirilgan foydaning riskka ta’sirchanlik darajasi tahlili<sup>16</sup>, (mln. AQSH doll.)**

<b>Ko‘rsatkichlar</b>	<b>2018- y.</b>	<b>2019- y.</b>	<b>2020- y.</b>	<b>2021- y.</b>	<b>2022- y.</b>	<b>2022-y.da 2018-y.ga nisbatan o‘zgapishi, % da</b>
Realizatsiyadan tushum	40,9	71,7	160,3	99,4	60,2	147,2
Tannapx	19,3	32,5	68,3	57,2	43,6	225,9
Yalpi foyda	21,6	39,2	92,0	42,2	16,4	76,8
Asosiy faoliyatdan olingan foyda	16,0	31,8	68,6	28,5	9,4	60,4
Boshqa faoliyatlardan olingan foyda	0,1	0,2	2,4	3,7	2,1	2,1 mapta
Yagona soliq to‘lovi <sup>17</sup>	5,5	7,2	21,0	10,0	4,9	89,1
Joriy yilning sof foydasi	7,9	23,6	42,5	17,3	4,8	60,8

4-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2018-2022-yillarda “Novator” MCHJda investitsion loyiha uchun rejalashtirilayotgan foydaning riskka ta’sirchanlik darajasi tahlili uchun barcha moliyaviy ko‘rsatkichlar dinamik xususiyatga ega. 2020-2022-yillarda kuzatilgan tushum hajmi, yalpi foyda, asosiy faoliyatdan foyda ko‘rsatkichlarining pasayish tendensiyasi uning sabablarini kengroq o‘rganishni talab etadi.

Mazkur holat, “Novator” MCHJ faoliyatidagi risklarning va ayniqsa operatsion riskning foydaga ta’siri past darajada ekanligidan dalolat beradi va risk menejment samaradorligi nuqtai nazaridan uni ijobiy holat deb baholash mumkin. Moliyaviy va iqtisodiy natija ko‘rsatkichlar past bo‘lgan bo‘lsada (boshqa yillarga nisbatan), biroq minimal o‘shishga erishilgan.

Tadqiqotni amalga oshirish mobaynida Andijon shahrida faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlar sub’yektlari rahbar va menejerlarini qamrab olgan so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomada o‘z tadbirkorlik yo‘lini tanlagan va faoliyatda katta natijalarga erishgan 135 ta respondent ishtirok etdi. O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari risklarni boshqarish jarayonida eng maqbul natijalar olinishini ta’minlovchi risk menejment tahlilining asosiy usul va modellarini aniqlash imkonini berdi. Bu modellar dissertatsiyada keng tahlil qilingan.

Bunda jami so‘rovnomada ishtirok etgan respondentlarning deyarli 70 foizi turli risk turlarini baholashning metodologik muammolari mavjudligini, 53 foiz respondentlar esa risklarni baholashning biznesga moslashgan uslubiyoti mavjud emasligini, 40 foizdan ko‘prog‘i – risk menejment bo‘yicha vakolatli

<sup>16</sup> “Novator” investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asosnomasi ma’lumotlaridan foydalangan holda muallif tomonidan shakllantirilgan.

<sup>17</sup> 2020-yildan qabul qilingan Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksiga acosan kopxona yillik oborotini inobatga olib, foyda solig‘i va QQS to‘lovchisi hisoblanadi.

mutaxassislar yetishmasligini, 31 foizi esa – statistik ma'lumotlar bilan bog'liq muammolar yetarli ekanligini ta'kidladilar. Shuningdek so'rovnomada tadbirkorlik sub'yektlari faoliyati inson omili bilan bog'liq mehnat munosabatlaridagi risklarni e'tiborga olgan holda amalga oshirildi. So'rovnoma natijasida ko'zga tashlangan muammolardan yana biri sifatida tijorat banklarining kreditlash amaliyotida kreditlar bo'yicha sug'urta polislari jami ta'minotning juda katta qismini (75-80 foiz) tashkil etishi bilan bog'liq holatni jami 41 ta (30,3 %) respondent tomonidan ko'rsatib o'tilgan. Ma'lumki, kreditlash jarayonida tadbirkorlik sub'yektlarining mulklari sug'urta munosabatlarining asosiy ob'yekti sifatida sug'urtalab kelinmoqda. Dissertatsiya ishida kreditorlik riskini boshqarishda tadbirkorlik subyektlarining bankdan olingan kreditlar bo'yicha sug'urta polislari jami ta'minotining 30 foizdan oshirmasligining maqsadga muvofiqligi asoslab berildi.

Tadbirkorlik sub'yekti faoliyatining bozordagi risk mavqeini izohlash uchun tegishli koeffitsientlarni dinamikada qiyoslash orqali korxonalar tarkibiy bo'linmalari bo'yicha faoliyatdagi risk zonalarini aniqlash imkonini beruvchi koeffitsientli tahlil usulidan foydalanish maqsadga muvofiq. Tahlil asosida 2021-yilda Andijon shahridagi "Novator" MCHJ korxonasi to'lovga layoqatliligini ifodalovchi koeffitsientlar hisoblab chiqildi. Tahlil natijalariga ko'ra, 2021-yil yakunlariga ko'ra "Novator" MCHJ korxonasida aylanma mablag'lar bilan umumiy ta'minlanganlik darajasini izohlovchi joriy likvidlilik koeffitsienti me'yordagidan qariyb 2 marta past miqdorni ko'rsatmoqda.

Mazkur koeffitsiyent korxonada moliyaviy barqarorlikning imkoniyatlari kichik miqdori hamda qisqa muddatli majburiyatlar bo'yicha yuqori risk darajasini ko'rsatadi. Risk menejment nuqtai nazaridan korxonada aylanma mablag'lar aylanuvchanligi ko'rsatkichining yuqori darajasi (247 kun) xomashyo sotib olish uchun mablag'lardan foydalanishning samarasizligidan darak beradi. Ishlab chiqarish zahiralari aylanuvchanligining yuqoriligi (178 kun) esa ortiqcha xarajatlar mavjudligi hamda tadbirkorlik tarkibi nolikvidliligi riskning oshganligini ifodalaydi.

Tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatining risklar bilan bog'liq holdagi rivojlanish qonuniyatlarini ifodalovchi dinamikada sof foyda qiymatining o'rtacha yillik qo'shimcha o'sishini aniqlash, unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar (mahsulot ishlab chiqarish hajmi, korxonalar faoliyatida axborot taraqqiyoti ta'siri, jalb etilgan investitsiyalar, kreditorlik qarzlari, umumiy daromad va umumiy xarajatlar) ta'sir darajasini hisoblash maqsadida dissertatsiya ishida Andijon shahridagi "XOLIS" MCHJ faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning o'zaro bog'liqligi korrelyatsion usul bilan tekshirilib, regressiya tenglamasi yordamida ekonometrik baholandi. Regressiya tenglamasining ishonchliligi Fisher va Student mezonlari asosida tekshirib ko'rildi. Hosil qilingan ekonometrik model yordamida "XOLIS" MCHJning 2023-2026-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi (5-jadval).

**Andijon shahridagi ko‘p tarmoqli “XOLIS” MCHJ faoliyati prognozi (mlrd. so‘m)<sup>18</sup>**

Yillar	Sof foyda, U	Jalb etiladigan investitsiyalar, X1	Kreditorlik qarzlari, X2	Umumiy daromadlar, X3	Umumiy Xarajatlar X4
2023 (prognoz 10)	0,857	3,680	1,020	2,087	1,995
2024 (prognoz 11)	0,921	4,073	1,084	2,242	2,089
2025 (prognoz 12)	0,984	4,335	1,148	2,356	2,237
2026 (prognoz 13)	1,078	4,662	1,211	2,470	2,298

